SCIENCE HUB REVIEW
2026
Volume 1
Issue 5
www.sciencehubreview.uz
ILMIY ELEKTRON JURNAL

TILNING KELIB CHIQISHI HAQIDAGI NAZARIYALAR VA ULARNING ILMIY ASOSLARI

Normurodova Nigina

Termiz davlat universiteti talabasi

niginanormurodova200506@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada tilning qanday, qachon va qay shaklda kelib chiqqanligi haqidagi nazariyalar o‘rganildi hamda ilmiy asos va misollar ko‘rib chiqildi.

Kalit so‘zlar

Til, farazlar, undovlar farazi, mehnat chaqiriqlari farazi, ijtimoiy kelishuv farazi, qabila va urug‘ tillari, milliy til tushunchasi, anomalistlar va anologistlar.

Til ham odamlar va ularning qarashlari kabi doim o‘zgarib, rivojlanib boyib boradi. Tilsiz jamiyat bo‘lmagani kabi til ham jamiyatdan tashqarida mavjud bo‘lmaydi. Bundan tashqari madaniyatning vujudga kelishida ham til muhim rol o‘ynaydi. Til boyigani sari madaniyat ham boyib takomillashib boradi. Til insonlar o‘rtasidagi aloqa aralashuv vositasidir. Insoniyat yaralibdiki, bir-biri bilan muloqot qilishga, bir-birini tushunishga harakat qiladi. Ibtidoiy jamoa davridayoq kishilar har xil usullar orqali o‘zaro gaplashishni boshlagan. Paleolit davridanoq kishi tafakkuri va nutq paydo bo‘lgan. Tafakkur va nutqning paydo bo‘lishi ilk insoniy munosabatlarning shakllanishida asosiy rol o‘ynagan. Tilning paydo bo‘lishi va uning taraqqiyot yo‘lini o‘rganish tilning qanday hodisa ekanligini tasavvur qilish imkonini beradi.

Tilshunoslik tarixida qadimdan qarama-qarshi ikki fikr o‘rtasida kurash boradi. Quyida shular to‘g‘risida fikr yuritamiz. Ushbu ikki fikrdan biri XIX asrda Germaniyada Avgust Shleyxer tomonidan asos solingan tilning tabiiy hodisa ekanligi haqidagi g‘oyadir. Uning fikricha, tilning rivojlanishi xalq istagiga bog‘liq emas, u o‘z qonunlari asosida rivojlanadi. Bundan til dunyodagi boshqa hodisalar kabi o‘z-o‘zicha paydo bo‘ladi,

rivojlanadi vaqti kelsa o‘ladi degan ma’no kelib chiqadi. Shleyxerning aytishicha, til kishining tabiiy xususiyatlariga xos narsadir. Xuddi olma daraxti vaqti kelib meva bergani kabi odam bolasi ham yoshi yetgach gapirishni boshlaydi. Bu fikrni ilgari surgan olimlarning ba’zi dalillari ham bor edi, ular lotin, sanskrit kabi tillarni misol qilib ko‘rsatishadi. Ushbu nazariya tarafdorlari nemis faylasufi Gegelning absolyut g‘oyasidan foydalanishadi. Jamiyatdan tashqarida yashagan inson bolasi qancha yashamasin, umuman gapirmaydi, chunki til nasldan naslga, avloddan avlodga o‘tmaydi. Insonning qaysi tilda gapira olishi uning qaysi muhitda tarbiyalanishiga bog‘liq. Chaqaloq ingliz oilasida tarbiyalansa, inglizcha, rus oilasida tarbiyalansa, ruscha gapiradi.

XX asr boshlarida Hindistonda bo‘rilar to‘dasi orasida ikkita qizchaga duch kelishgan. Ularning bittasi 2 yoshda, yana biri esa 7-8 yoshlar atrofida bo‘lishgan va ular xuddi bo‘rilar kabi xatti-harakatlar qilishgan. Hindistonlik psixolog olim ularni, avval, uyida so‘ngra kichigi vafot etgach, kattasini bolalar uyida tarbiyalagan. Qizcha 10 yil atrofida umr ko‘radi va shu yillar mobaynida 45 ga yaqin so‘z o‘rganadi, biroq gap tuzishni o‘rgana olmaydi. Bu voqeani kuzatgan psixologlar, sotsiologlar, tilshunoslar til tabiiy hodisa emas, tilning paydo bo‘lishi uchun kishilik jamiyati kerak degan fikrga keldilar. Bundan ko‘rinadiki, inson gapirishi uchun u inson bo‘lishi yetarli emas.

Qadimgi Yunonistonda ham faylasuflar tilning qay tarzda kelib chiqqanligi haqida uzoq vaqt bahslashishgan. Tilshunoslik tarixidan ma’lumki,bu masalada grek faylasuflari ikkita bir-biriga zid farazni o‘rtaga tashlashgan. Demokrit va boshqalar tilda narsa va uning nomi o‘rtasida hech qanday bog‘lanish yo‘q, nomlar insoniyatning o‘zi tomonidan yaratilgan, demak tilni odam yaratgan, degan fikrni ilgari surgan. Bu guruh olimlar **anomalistlar** deb nomlangan. Platon boshchiligidagi boshqa bir guruh olimlar narsalarning nomi ularning xususiyati va tabiatidan kelib chiqib yaratilgan deb fikrlashgan. Bu guruh olimlar esa **anologistlar** deb nomlangan.

Hozirgi tilshunoslik nuqta’i nazaridan qaralsa, narsalar va ularning nomlari orasida hech qanday bog‘liqlik yo‘q, agar shunday bo‘lganda dunyoda 7000 ta til mavjud bo‘lmagan bo‘lar edi. Lekin shu bilan birga tillarning bugungi holati ya’ni sinxroniya nuqta’i nazaridan zamonaviy tillarda har ikki fikrlarni tasdiqlovchi yetarli faktlar mavjud. Quyida ular to‘g‘risida qo‘shimcha ma’lumotlar beriladi.

Tilning paydo bo‘lishi to‘g‘risida asosiy farazlardan biri tovushga taqliddir. Bu faraz qadimgi Yunonistonda - Demokrit va Platon davrida o‘rtaga tashlangan bo‘lib, unga ko‘ra ibtidoiy odamlar yo ongli, yo ongsiz tarzda turli-tuman tovushlar, ya’ni hayvonlaming baqiriqlari, qushlarning sayrashi, shamol va sharsharalarning ovozlari vahokazolarga taqlid qilishga harakat qilishgan. Ibtidoiy odamlar dastlab ayrim tovushlarni, keyinchalik bu tovushlarni bir-biriga qo‘shib talaffuz qilishni o‘rganishgan: bu tovush va tovush birikmalari so‘z yasashga asos bo‘lgan, degan fikr ilgari suriladi. Har bir tilda tabiat tovushlariga taqlid qilish yo‘li bilan paydo bo‘lgan so‘zlar, masalan, rus tilida кукушка, гавкать, шипеть (шипение), o‘zbek tilida - qarg‘a, sharshara, kaklik, chumchuq,miyov(miyovlamoq)ning mavjudligi bunday farazga asos qilib olingan. Ammo bu so‘zlar tildagi so‘zlarning juda kamchiligini tashkil etadi. Tovushga taqlid qilish farazi to‘g‘ri bo‘lsa, unda ibtidoiy jamiyatda yashagan qabilalar tilida bunday usulda yasalgan so‘zlarning soni fan va texnikasi rivojlangan xalqlar tilidagiga nisbatan ko‘proq bo‘lishi kerak. Lekin so‘nggi yillarda Avstraliya va Janubiy Amerikada topilgan, ibtidoiy tuzumni boshidan kechirayotgan qabilalar tilida o‘tkazilgan tajribalar, bu tillarda tovushga taqlid qilish yo‘li bilan yasalgan so‘zlar rivojlangan tillardagiga nisbatan birmuncha kamligini ko‘rsatdi.

Undovlar farazi. Tilning paydo bo‘lishiga doir ikkinchi keng tarqalgan fikr undovlar farazidir. Bu faraz ham qadimiy bo‘lib, uning asosida ham havvonlarningbaqiriq-chaqiriqlari yotadi. Bu faraz asoschilarining fikricha, ibtidoiy odamlarhayvonlarning baqiriq-chaqiriqlarini o‘rganib, ular orqali o‘zlarining ichki kechinmalari, g‘am-alamlarini ifodalashgan: oh, uh kabi undov so‘zlar bunga misol qilib ko‘rsatiladi. Tildagi boshqa so‘zlar esa ana shunday so‘zlaming birikuvidan kelib chiqqan, deb tushuntiriladi. Taniqli fransuz olimi Jan Jak Russo (XVIII asr) ham shu fikrni quvvatlagan. Dunyodagi barcha tillarda bunday birliklar mavjud bo‘lib, ular yordamida har xil so‘z turkumlari yasalishi mumkin. Lekin bu so‘zlaming miqdori shu qadar kamki, tildek murakkab hodisa ana shu yo‘l bilan paydo bo‘lgan, deyish bu masalani juda soddalashtirib yuborgan bo‘lar edi.

Mehnat chaqiriqlari farazi. Bu farazni ilgari surgan olimlarning fikricha, til odamlar jamoa bo‘lib mehnat qilayotganlarida mehnatni tashkil qilishda foydalanilgan tovushlar

asosida paydo bo‘lgan. Hozirgi zamon olimlarining ma’lumot berishicha, tilning paydo bo‘lishida mehnat chaqiriqlarining hech qanday daxli yo‘q, chunki u na odamlar orasida aloqa vositasi vazifasini bajaradi, na narsa va 12 hodisalaming nomini ataydi va na his-hayajonni ifodalaydi. Bu faraz ham tilning kelib chiqish sabablarini, tilning paydo bo‘lishini jamiyatning paydo bo‘lishi, so‘zlash va fikr yuritish qobiliyatiga ega bo‘lgan insoniyatning paydo bo‘lishi bilan uzviy ravishda bog‘lay olmaydi. Ijtimoiy kelishuv farazi. Bu faraz XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo‘lib, uni ilgari suruvchi olimlar ba’zida bir-biriga zid xulosalarga kelishgan, ularning tilning kelib chiqishi to‘g‘risidagi asosiy fikrlari bir xil. Qisqa qilib aytganda, bu farazga narsalarni qanday atashni odamlar o‘zaro kelishib olishgan. Ko‘rinib turibdiki, boshqa farazlarga qaraganda, bu eng oddiy va oson tanqid qilinishi mumkin, chunki biror narsa to‘g‘risida kelishib olish uchun, tabiiyki, kelishuv vositasi, ya’ni til kerak. Binobarin, bu faraz tilning paydo bo‘lishini emas, balki til rivojlanishining bir yo‘nalishini tushuntirishi mumkin. Hozirgi vaqtda u yoki bu fanga taalluqli so‘z va atamalar o‘zaro kelishib olinadi. Lekin buning tilning paydo bo‘lishiga hech qanday aloqasi yo‘q. Yuqorida qayd etilgan farazlar ayrim-ayrim olinganda tilning paydo bo‘lishi jarayonini to‘la-to‘kis tushuntirib bermasa-da, ularning har birida ma’lum darajada haqiqat bor, ya’ni bu fikrlarning har qaysisi tilning paydo bo‘lishi hodisasiga o‘z hissasini qo‘shgan. Awal aytilganidek, til - ijtimoiy hodisa, odamlar jamiyatlarga uyushgan vaqtdan boshlab bir-birlariga nimanidir aytish ehtiyoji tug‘ilgan. Tilning paydo bo‘lishi tafakkur bilan bir vaqtda sodir bo‘lgan. Insoniyatga xos bo‘lgan bu ikki hodisa bir-biri bilan uzviy bog‘langan, biri ikkinchisisiz yashay olmaydi. Tilning asosida tafakkur yotadi, tafakkur esa o‘z navbatida til orqali namoyon bo‘ladi, rivojlanadi.

Qabila va urug‘ tillari. Ijtimoiy formatsiyalar va til. Kishilar ibtidoiy jamiyatning dastlabki davrlarida to‘da-to‘da, ya’ni urug‘ bo‘lib yashaganlar. Urug‘ kishilar jamiyatining eng kichik, oddiy hamda qadimiy uyushmasidir. Bir nechta qardosh urug‘lar qabilani tashkil qilgan. Bunday uyushmalaming har birining o‘z tili, o‘z aloqa vositasi bo‘lgan. 13 Ma’lumki, jonli mavjudot ko‘payish xususiyatiga ega. Vaqt o‘tishi bilan qabila a’zolari ko‘payib, kengroq hududga tarqala boshlaydi. Boshqa joylarga ko‘chib ketgan qarindosh qabilalar ma’lum ijtimoiy- iqtisodiy sharoitlarda bir tilning turli

shevalarida so‘zlashuvchi qabilalarning uyushmasiga - qabila ittifoqlariga birlashadi. Qabila ittifoqlarining umumiy tili bo‘lib, ayrim qabila tillari qabila ittifoqi tiliga nisbatan sheva holotini egallaydi. Xalqning asosiy belgilaridan biri bo‘lgan milliy til bir-biridan farq qiluvchi shevalarni o‘zaro yaqinlashtiruvchi, yetakchi, iqtisodiy va madaniy markaz tili sifatida namoyon bo‘ladi. Shevalar, milliy tillar urug‘chilik davridan boshlab son jihatdan ko‘payib boradi. Awal bir qabila ittifoqiga kirgan tillarda markazdan uzoqlashgan sari, shevaga xos farq orta boradi va oxir natijada bu farq yangi til paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin; son o‘zgarishi sifat o‘zgarishiga olib keladi. Yangidan-yangi sheva va tillarning paydo bo‘lishida ikki omil - vaqt va masofa hal qiluvchi ahamiyatga egadir: vaqt o‘tgan sayin, masofa kengaya borishi, yangi sheva va tillar paydo bo‘lishiga olib keladi.

Xulosa: Tilning kelib chiqishi insoniyat tarixidagi eng murakkab va qiziqarli masalalardan biridir. Yuqorida keltirilgan nazariyalarni o‘rganish davomida shunday xulosaga keldimki, til birdaniga yoki faqat bitta sabab tufayli paydo bo‘lmagan. Uning shakllanishida insonlarning o‘zaro muloqotga bo‘lgan ehtiyoji, birgalikdagi mehnati, tafakkuri, tabiatni kuzatishi va jamiyat bo‘lib yashashi muhim ahamiyat kasb etgan. Menimcha, tovushga taqlid, undovlar va mehnat chaqiriqlari kabi farazlarning har birida ma’lum bir haqiqat mavjud, ammo ularning hech biri tilning kelib chiqishini to‘liq izohlab bera olmaydi. Ayniqsa, tilning ijtimoiy hodisa ekanligi haqidagi fikr meni ko‘proq o‘ylantirdi. Chunki inson tilni tayyor holda meros qilib olmaydi, balki uni o‘zi yashayotgan muhit, oila va jamiyat orqali o‘zlashtiradi. Bu esa tilning insonlar o‘rtasidagi munosabatlar bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi. Fikrimcha, til insoniyatning shunchaki aloqa vositasi emas, balki uning tarixi, tafakkuri, madaniyati va ma’naviy boyligini o‘zida mujassam etgan bebaho hodisadir. Tilning kelib chiqishini anglash orqali biz nafaqat so‘zlarning paydo bo‘lishini, balki insonning jamiyat sifatida shakllanish jarayonini ham chuqurroq tushunamiz. Shuning uchun tilni asrash, rivojlantirish va kelajak avlodga yetkazish har bir insonning muhim vazifalaridan biri, deb hisoblayman.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Z.Xolmanova “Tilshunoslikka kirish”,Toshkent-2007.
2. M.Irisqulov “Tilshunoslikka kirish” “O‘qituvchi”-1992.

3. R.Rasulov “Umumiy tilshunoslik” Toshkent-2013.
4. M.Irisqulov “Tilshunoslikka kirish” Toshkent “Yangi asr avlodi” -2009.
5. Arxiv.uz sayti.